

## Makale Bilgisi | Article Information

Makale Türü / Article Type:

Araştırma Makalesi / Research Article

Geliş Tarihi / Date Received: 15.10.2023

Kabul Tarihi / Date Accepted: 30.11.2023

Yayın Tarihi / Date Published: 30.12.2023

## İntihal | Plagiarism

Bu makale, iThenticate yazılımına taranmıştır. İntihal tespit edilmemiştir. *This article has been scanned by iThenticate. No plagiarism detected.*

## Değerlendirme | Peer-Review

İki Hakem / Çift Kör Hakem

Double anonymized - Two External

## Atıf | Citation

Isokov, Z. (2023). Farg‘Ona Vodiysi An‘anaviy Dehqonchiligi va Chorvachiligida Osmon Yoritqichlari Bilan Bog‘Liq Urf-Odat Hamda Marosimlari. *ÇAKÜTAD*, 3 (2), 177-185.

## Telif Hakkı | Copyright

(CC BY-NC 4.0) Uluslararası Lisansı altında lisanslanmıştır. *Licensed under the (CC BY-NC 4.0) International License.*

## Etik Beyan | Ethical Statement

Bu çalışmanın hazırlanma sürecinde bilimsel ve etik ilkelere uyulduğu ve yararlanılan tüm çalışmaların kaynakçada belirtildiği ve yazarın sorumluluğunda olduğu beyan olunur. *It is declared that scientific and ethical principles have been followed while carrying out and writing this study and that all the sources used have been properly cited.*

## Etik Kurul İzni/Ethics Committee Permission

Bu çalışma için etik kurul izni gerekmemektedir. Yaşayan hiçbir canlı (insan ve hayvan) üzerinde araştırma yapılmamıştır. *Ethics committee permission is not required for this study. No research has been conducted on any living creature (human or animal).*

## Finansman ve Çatışma Beyanı / Grant Support and Conflict of Interest

Bu araştırmayı desteklemek için dış fon kullanılmamıştır. *The author(s) acknowledge that they received no external funding in support of this research.*

Makalenin yazarı, bu çalışma ile ilgili herhangi bir kurum, kuruluş, kişi ile mali çıkar çatışması olmadığını ve yazarlar arasında çıkar çatışması bulunmadığını beyan eder. *The author of the article declares that there is no financial conflict of interest with any institution, organization, or person related to this study and that there is no conflict of interest between the authors.*

# FARG‘ONA VODIYSI AN‘ANAVIY DEHQONCHILIGI VA CHORVACHILIGIDA OSMON YORITQICHLARI BILAN BOG‘LIQ URF-ODAT HAMDA MAROSIMLARI

Fergana Vadisi Geleneksel Tarım ve Hayvancılığında Gökyüzüne Bağlı Gelenekler ve Merasimler

Ziyodulla ISOKOV 

Doç. Dr., O‘zbekiston Davlat San‘at va Madaniyat Institutı, Kino, Televedeniye va Radio San‘ati Fakulteti, Ijtimoiy Fanlar va Pedagogika Kafedrası, Toshkent/O‘ZBEKISTON, ziyodisok@gmail.com

## Annotatsiya

Turk xalqlarından biri bo‘lgan O‘zbek Turkklarining qadimiy tarixi bor. O‘zbeklarning asrlar davomida avlod-dan-avlodga o‘tib kelgan ko‘plab urf-odat va marosimlari bo‘lib bu xalqimizning tom manoda ma‘naviy mulki hamda tafakkuri mahsulidir. Ushbu maqolada, O‘zbek xalqining dehqonchilik va chorvachilik bilan bog‘liq urf-odatları marosimlari keng manba va adabiyotlardagi ma‘lumotlar bilan tahlil qilingan holda yoritib berildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali ushbu urf-odat va marosimlarning O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan lokal jihatlari ochib berilgan. Maqolada, Farg‘ona vodiysi O‘zbeklarning an‘anaviy dehqonchiligida asrlar davomida osmon va sayyoralar harakati bilan bog‘liq e‘tiqodlar alohida o‘rin tutganligi, vodiylar dehqonlarining yil fasllarining o‘rin almashishi muddatlari hamda samoviy yoritqichlar harakatini kuzatishga asoslangan hayotiy tajribalar kundalik hayotda muhim amaliy ahamiyat kasb etganligi yoritilgan. Malumki bobodehqon va chorvadorlarimiz yulduzlar harakati, quyosh va oyning holatiga qarab ob-havo qanday bo‘lishini aniqlay olishgan. Ota bobolarimiz tabiatda tevarak-atrofdan ro‘y berayotgan voqea-hodisalar sababini ilohiy kuchlar va ins-jinslarga bog‘lab tushuntirishgan. Osmon jismlarini ma‘bud va ilohlarning timsoli deb qaraganlar. Bu ilohlarning har biri o‘z xarakteri va odamlarga munosabati jihatidan farqlangan bo‘lib, ezgulik va yomonlik istovchi ilohlar bo‘lib tasavvur qilingan. Biz maqolada dehqon va chorvadorlarning osmon yoritqichlari bilan bog‘liq holda turli “solnoma” va “haftanoma”lar tuzganligi va ularda dehqonchilik qilish uchun oy sanalarining yaxshi va yomon kunlarga ajratilganligi xususida ham ma‘lumot beriladi. Farg‘ona vodiysi chorvadorlarining turmush tarzi haqida ham bir qancha qiziqarli ma‘lumotlarni keltirib o‘tilgan. Jumladan, chorvadorlar hayotida muhim o‘rin tutgan “darimchi”lik

faoliyati xususida avvallari fanda deyarli yoritilmagan ma'lumotlarni keltiradi. Bu ma'lumotlar esa Turkiy xalqlarning jumladan Farg'ona vodiysi aholisining asrlar davomida shakllangan tafakkuri va dunyoqarashining mahsuli bo'lib, ularni o'rganish esa bugungi kunimizning dolzarb masalalaridan biridir.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona vodiysi, dehqonchilik, chorvachilik, osmon, kalendar.

## Öz

Türk halklarından biri olan Özbek Türklerinin köklü bir geçmişi vardır. Gelenekler, geleneksel ritüeller ve kültürler yüzyıllardır nesilden nesile aktarılmıştır. Bu makalede, Özbek halkının çiftçilik ve hayvancılıkla ilgili gelenek ve ritüelleri geniş bir kaynak ve literatür bilgisi yardımıyla analiz edilmektedir. Özbek halkına özgü bu gelenek ve törenlerin yerel yönlerini karşılaştırmalı analiz yöntemiyle ortaya çıkardık. Fergana Vadisi Özbeklerinin geleneksel tarımında yüzyıllar boyunca gökyüzünün ve gezegenlerin hareketine ilişkin inanışlar, vadideki mevsimlerin ve vadideki çiftçilerin gözlemlenmesine ve göksel hareketlerin gözlemlenmesine dayalı yaşam deneyimleri günlük yaşamda büyük bir pratik öneme sahip hale geldi. Kayıtlarımıza göre Özbek çiftçiler ve çobanlar, yıldızların hareketine, güneşin ve ayın konumuna göre havanın nasıl olacağını belirleyebiliyorlardı. Doğada meydana gelen bu olayların nedenlerini ise ilahi güçlere ve doğaüstü güçlere bağlayarak açıklamışlardır. Özbek halkı, gök cisimlerine tanrı ve tanrıçaların sembolleri olarak baktılar. Bu tanrıların her biri, karakterleri ve insanlara karşı tutumları bakımından farklılık gösteriyordu ve iyinin ve kötünün tanrıları olarak hayal ediliyordu. Makalede ayrıca çiftçilerin ve çobanların gökyüzü ile bağlı çeşitli "yıllık" ve "haftalık" olarak düzenlenen ve bunların içinde çiftçilik için tarihlerin iyi ve kötü günlere ayrılışı hakkında bilgi verilmektedir. Makalede vadi civarındaki yaşam tarzı hakkında bilgi de yer almaktadır. Ayrıca vadi önemli yere sahip olan büyükbaş hayvan yetiştiriciliği hakkında kadimi bilgiler de incelenmektedir. Bu Fergana Vadisindeki bilgiler Türk halklarının yüzyıllar boyunca oluşan düşünce ve dünya görüşünün bir ürünüdür ve bunların incelenmesi günümüzün acil meselelerinden biridir.

**Anahtar Kelimeler:** Fergana vadisi, çiftçilik, hayvancılık, gökyüzü, takvim.

## Kirish

Ma'lumki samoviy yoritqichlar asrlar mobaynida insonlarni qiziqtirib kelgan. Gerodotning yozib qoldirishicha, Markaziy Osiyoda antik davrlarda yashagan qavmlardan biri massagetlar Quyoshni yagona tangri deb bilganlar. Turkiylarning qadimgi dinlaridan biri bo'lgan "Ko'k Tangri" dinida esa butun osmon yuzi Xudo deb tushunilgan. Tangrining osmonda ekanligiga ishonch bildirilgan. Osmon Tangri hisoblangani uchun shu osmonda joylashgan Quyosh, Oy va Yulduzlar ham muqaddas sanalgan. Farg'ona vodiysi aholisi an'anaviy dehqonchiligida ham osmon va sayyoralar harakati bilan bog'liq e'tiqodlar alohida o'rin tutgan.

Ajdodlarımız yıl fasllarining o‘rin almashishi muddatlari bilan birga yulduz burjlarini ham juda yaxshi bilishgan. Bunga sabab samoviy yoritqichlar harakatini kuzatishga asoslangan hayotiy tajribalar kundalik hayotda muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun dehqon ham, chorvador ham, bog‘bon ham yulduzlar harakati, quyosh va oyning holatiga qarab ob-havo qanday bo‘lishini aniqlay olishgan. Ertalab quyosh qizarib chiqsa, ish kuni havo buziladi, quyosh qizarib botsa, ertasiga kun yaxshi bo‘ladi yoki tarozi yulduzlari ufq ustida paydo bo‘lsa, yoz boshlanganidan darak beradi (Ob-havo darakchilari, 1996, b. 36) O‘rta Osiyo xalqlari ziroatchiligida dehqonchilik homiysi Bobodehqon kulti va u bilan bog‘liq urf-odatlar keng tarqalgan. Dehqonchilikda o‘tkaziladigan barcha urf-odat va marosimlar Bobodehqonga bag‘ishlangan. Uning nomi yerni shudgorlashda, urug‘ sepishda, hosilni o‘rinishda, yanchishda doimo yodga olinib turgan. Bobodehqon halol mehnat bilan kun ko‘ruvchi, boshqalar haqidan xazar qiluvchi, dehqonlarga xomiylik qiluvchi, ularning mehnati rivojiga rivoj qo‘shuvchi pir hisoblangan. Qadimgi yozma manbalarda Bobodehqon obrazi bilan bog‘liq ma‘lumot Nosiruddin Burxoniddin Rabg‘uziy asarida uchraydi (Rabg‘uziy, 1990, b.25-26). Ushbu asarda dehqonchilik xomiysi Bobodehqon yer yuzidagi birinchi inson Odam ato timsolida o‘z aksini topadi. Ushbu asarda shunday deyiladi: “Odam Hindistonda Anjalus otlig‘ yerda Sarandib tog‘inga tushadi, Havo Jadda tog‘inga tushdi. Odamning yoshi tomgan yerda o‘t-yem, og‘iz-suchuk dorular bo‘ldi. Havvoning ko‘zi yoshi tomgan yerda ud (sigir), qaranful (qalampirmunchoq), sunbul, xino, o‘sma undi”. Demak, yerda paydo bo‘lgan o‘t-o‘lanlar, hayvonlar inson mo‘jizasi tufayli ro‘y bergan ekan.

Bobodehqon timsoli O‘rta Osiyoning barcha hududlarida bir xil ko‘rinishda tasavvur qilinmagan. Farg‘ona vodiysida uning ramzi sifatida ko‘pni ko‘rgan oqsoqolli keksa kishi ish boshida turgan. Dehqonchilikning barcha ishlarining boshlanishida yoshi ulug‘ badavlat, nevara-chevarasi ko‘p, tadbirkor va obro‘li kishi boshlab bergan kal va ko‘sa odamlarni urug‘ ekishiga ruxsat berilmagan.

Islom dini paydo bo‘lgandan so‘ng yaratilgan “Nurnoma” majmuasining “Risolai dehqon” bobida “Odam alayhissalomdan to janob rasuliloh Sallollohu alayhi vassallomning saodatlarigacha 7777 dehqon o‘tibdurlar. Hammalari oqil va dono va kasb-koriga muvofiq risola va sohibi duo edilar (1991, b.32)” deyiladi. Ushbu “dehqonchilik risolasi” asrdan-asrga avloddan-avlodga meros bo‘lib qolgan. Uni XX asr boshlarida rus sayyohi M. Gavrilov rus tiliga ham tarjima qilib, kitob hoida nashr qildirgan (Gavrilov,1912). Ushbu risoladan dehqonchilikga oid ko‘plab maslahatlar, pand-nasihatlar o‘rin olgan. Shuningdek risolada ko‘rsatilgan 7777 dehqon ichidan yana 18 ta eng mohir dehqonlar ajratilib ko‘rsatilgan bo‘lib,

Gavrilovning yozishicha bular kelib chiqishi jihatidan Movarounnahr hududiga aloqador bo'lgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki Bobodehqon kultiga o'xshash dehqonchilik Kultlariga ishonish va e'tiqod qilish. Yer yuzining ko'plab dehqonchilik xududlarida masalan Xindiston, Xindixitoy, Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerika xududlarida ham mavjudligi mualliflar tomonidan qayd qilingan (Tokarev, 1964, b.383).

### **1.Farg'ona Vodiysida Osmon Haqidagi E'tiqodlar**

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida O'rta Osiyoning boshqa hududlari singari islom dinining ta'siri kuchli bo'lgan. Odamlar osmon-u falak sirlari haqida muayyan ilmiy tasavvurga ega bo'lmaganlar. Ular tabiatda tevarak-atrofdagi ro'y berayotgan voqea-hodisalar sababini ilohiy kuchlar va ins-jinslarga bog'lab tushuntirishgan. Odamlar osmon jismlarini ma'bud va ilohlarning timsoli deb qaraganlar.

Bu ilohlarning har biri o'z xarakteri va odamlarga munosabati jihatidan farqlangan bo'lib, ezgulik va yomonlik istovchi ilohlar bo'lib tasavvur qilingan. Masalan, qizg'ish sayyora «Mirrix (mars)»ga qonni yaxshi ko'radigan «urush xudosi» deb, eng yorug' sayyora Zuhra (Venera)ga esa «go'zallik ma'budasi timsoli» deb nom berilgan. Qadimgi yunon afsonalariga ko'ra, osmondagi ko'ndalang yo'nalgan somon yo'li «ma'budaning ko'krigidan otilib chiqqan sut» deb talqin qilingan (Egamberdiyev va Soatov, 1990). O'zbek afsonalarida esa somon yo'li hayoliy qahramonning boshi osmonga tekkanda hosil bo'lgan sidriq, aravadan to'kilgan somonning izi deb tasvirlanadi (Jo'rayev, 1996a, b. 35-41).

Yozma manbalardan ma'lumki, qadimgi munajjimlar samoda ro'y bergan bir qancha hodisalarni «xudoning amri» bilan bog'lashgan. Xalqimiz orasida yerdagi har bir odamni osmonda yulduzi bor, mabodo yulduzlardan biri uchsa, yerdagi kishilardan birining umri so'nadi, degan mifologik tasavvurlar mavjud bo'lgan (Jo'rayev, 1996b, b. 39-43).

Osmon yoritqichlariga doir tasavvurlar haqida gap ketganda ajdodlarimiz ulardan yettitasiga ko'proq e'tibor qaratganini ko'ramiz. Ular quyosh va u bilan bog'liq oltita yulduzdir. Shu boisdan, dunyo xalqlarida «yetti» raqami ham muqaddaslashtirilgan. Qadimiy turkiylarda barcha yulduzlarga nisbatan «jilduz» so'zi qo'llanilib, yuqoridagi yulduzlar esa quyidagidek nomlar bilan yuritilgan. Mushtariy (Yupiter) - «eranto'z», Mezon (Vesi)-«qoraqush», Surayyo (Pleyada)-«o'lkar», Yetti qaroqchi «jetikan», qutb yulduzi (Polyarnaya zvezda)-«temurqazuq», mirrix (Mars) yulduzi-«Baqirsoqim» (Qoshg'ariy, 1963).

Haftaning har bir kuni muayyan osmon jismlari bilan bog'liq holda tasavvur qilinganligini hisobga olsak, bir haftada yetti kun borligi ham yetti sayyora nomi bilan aloqadorligi ma'lum bo'ladi. Jumladan, Dushanba Oy kuni, Seshanba Mirrix (Mars) kuni, Chorshanba Atorud (Merkuriy) kuni, Payshanba Mushtariy (Yupiter) kuni, Juma Zuhra (Venera) kuni, Shanba Zuhal (Saturn) kuni, Yakshanba Shams (Quyosh) kuni hisoblangan. Shuningdek, yetti qavat osmon bilan yetti qat yer to'g'risidagi asotirlar ham keng tarqalgan. O'tmishda ota-bobolarimiz hafta kunlarini va o'sha kunlari ro'y beradigan tabiat hodisalarini kuzatib, maxsus «solnoma» va «haftanoma»lar tuzishganki, bu manbalarda haftaning qaysi kuni qanday amalga oshirish mumkin yoki mumkin emasligini belgilab berilgan. Masalan, haftanomada shunday bitiklarga duch kelishimiz mumkin: «Shanba (Zuhal)-dehqonchilik qilmoq yaxshidir, bir donaga ming dona barakat berur, hargiz befoyda bo'lmas. Yakshanba (Quyosh)-dehqonchilik qilmoq yaxshi emas, ofat tushgay. Dushanba (Oy)- dehqonchilik qilmoq yaxshidir. Seshanba (Mirrix)-agar ziroat qilsa, qurt, sichqon yo hayvondin ul ziroat shikast topgay. Chorshanba (Atorud)- ammo dehqonchilik qilmoq yaxshidir, barakat paydo bo'lur, xirmon olmoq yaxshidir. Payshanba (Mushtariy)-hamma korlarga yaxshidir. Juma (Zuhra)-dehqonchilik qilmoq yaxshidir» (Haftanoma, 1990, b. 2-8).

Manbalardan ma'lumki tabiat xodisalaridan bo'lgan shamol bilan bog'liq diniy qarash va tasavvurlar ham dunyo halqlari folklorida turlicha talqin qilinadi. Yurtimizning qadimdan o'troq holda yashab, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ulangan Farg'ona vodiysi aholisi folklorida ham shamol bilan bog'liq o'ziga xos qarashlar mavjud. Vodiya shamol piri sifatida Haydar kultiga sig'inilgan. Ko'pgina tadqiqotchilar Haydar haqidagi xalq qarashlari payg'ambarimiz Muhammad alayhis salomning kuyovi Hazrati Ali to'g'risidagi afsonalar asosida yuzaga kelganligini ta'kidlaydilar (Sarimsoqov,1986, b.136). Shamol piri Haydarning Hazrati Ali obrazida tasavvur qilinishi V.N.Basilovning ta'kidlashicha, faqat Farg'ona vodiysi o'zbeklarigagina xos bo'lgan talqindi (Basilov, 1986, b.202). O'rta Osiyo xalqlarining ko'pchiligida Haydar kulti hazrati Ali shaxsi bilan bog'liq holda talqin qilinmaydi.

O'zbeklarning shamol bilan bog'liq bunday qarashlari haqida folklorshunos olim M. Jo'rayev quyidagilarni yozadi: "Haydar obrazining bunday ikki xil talqinga ega ekanligi Alining shamolni o'ziga bo'ysundira olishi haqidagi xalq qarashlarining unutilishi natijasida yuzaga kelgan holat emas, balki Haydar mustaqil mifologik obraz sifatida islomgacha ham mavjud bo'lganligidan dalolat beradi" (Jo'rayev M. O'zbeklarning shamol bilan bog'liq mifologik tasavvurlari (1997,b.45-46). M. Jo'rayevning fikricha, "Haydar" atamasining kelib chiqish o'zagi "Avesto"da nomi tilga olingan

shamol xudosi "Vata"- atamasiga bog'liq, B.A. Litvinskiy ham "Avesto"da ikki nafar shamol xudosining nomini, ya'ni "vayu" va "Vata" ilohlarini ko'rsatib o'tgan. Bu mifologik atamalarning o'zagidagi "va" kalimasi, qadimgi hind-eron tillarida "esmoq" (ya'ni shamol esishi) ma'nosini bildirar ekan. (Litvinskiy, 1981, b.104-105) Uning fikricha, "Vata" janubdan esadigan shamol xudosining ismidir. Osetin Abxaz folkloridagi shamol kulti va ayrim mifologik obrazlarning qadimiy shamol xudosi "Vata" yoki "vayu" ga aloqadorligini tadqiqotchilardan S.L. Zuxba (1970, b.187.) va J. Dyumezillar (1976, b.149-151) ham qayd etgan edilar.

Ma'lumki, chorvachilik O'rta Osiyo, jumladan, Farg'ona vodiysi aholisining qadimiy mashg'ulotlaridan biri hisoblangan. Bu soha Zardo'shtiylikning muqaddas kitobi Avestoda ham ulug'lanadi. Chorvachilik jamiyat hayotida, taraqqiyotida asosiy omil, hattoki odamni qurbonlik qilishdan qutqargan vosita bo'lganligi bois, cho'ponlik barcha iqtisodiy formatsiyalarda muqaddas professional kasb darajasiga ko'tarilgan. Shu sababdan cho'pon tanlangan, saralangan. Cho'ponga tayoq topshirish, tayoq ushlatish marosimlari o'tkazilgan. Bunda cho'ponlar piri Cho'pon ota, Zangi otalarga bag'ishlab «qon» ham chiqarilgan. Tabiiyki asrlar davomida ushbu mashg'ulot turi bilan bog'liq marosim va urf odatlar shakllangan. Farg'ona vodiysining tekislik qismidagi o'tloqlarni dehqonchilik uchun tobora ko'proq o'zlashtirilib borishi oqibatida chorvani uzoqroq yaylovlarga haydash kuchaygan. Farg'ona vodiysi atrofida joylashgan tog' va tog'oldi zonalaridagi yaylovlar bu davrda aholi chorvachiligining rivojida muhim rol o'ynashi bilan birga, turli etnik jamoalar o'rtasidagi xo'jalik-madaniy aloqalarni mustahkamlashda ham katta ahamiyat kasb etgan. Ushbu yaylovlarda vodiyning ko'plab etnik jamoalari - qirg'iz, qipchoq, turk, qurama, yuz, qoraqalpoq hamda o'troq o'zbek va tojiklar o'z chorvalarini boqqanlar. Farg'ona vodiysi chorvadorlarida ushbu mashg'ulot bilan bog'liq marosim va urf odatlar shakllanganligini biz yuqorida qayd etib o'tdik. Ta'kidlash joizki, bu mashg'ulot bilan bog'liq urf-odat va marosimlarga talaygina misollar keltirish mumkin. Biroq aynan Osmon yoritqichlari bilan bog'liq bir marosim haqida biz dala ekspeditsiyalarimiz davrida yozib olingan bir ma'lumotni keltirib o'tamiz. Bizga ma'lumki dehqonchilikda ekinlarga turli zararli hashoratlar zarar keltirsa, chorvachilikda ham chorva hayvonlariga shu kabi hasharotlar ziyon keltirgan. Bulardan qutulish uchun hozirda turli kimyoviy usullardan foydalaniladi. Avvallari esa bunday imkoniyatlar bo'lmaganligi sababli Ota-bobolarimiz an'anaviy usullar bilan birga ba'zi bir g'ayri oddiy magik usullardan ham foydalanganlar. Ma'lumki, chorva hayvonlariga eng ko'p zarar keltiruvchi yaylov kanallari bo'lib, ular chorva hayvonlarini yaxshi rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Bularni yo'q qilish uchun chorvadorlar xalq orasida "Darimchi" deb ataluvchi insonlar xizmatidan foydalanishgan. "Darimchi"lik juda nodir

kasb bo‘lib, hozirda bunday kasb egalari deyarli qolmagan. Bunday insonlar o‘z xizmati uchun anchagina yaxshi haq olganlar. “Darimchi”lar ishtirokidagi marosim quyidagicha o‘tkazilgan. Chorva egasi “darimchi”ni o‘z qo‘rasiga taklif qilgandan so‘ng “darimchi” toza pokiza va tahoratli holatda suruv yaqiniga kelib, ichi tozalangan, qovoqdan tayyorlangan idishga toza suv to‘ldirgan va ushbu suvga Qur‘ondan suralar o‘qib dam solgan. So‘ngra ushbu idishni suruv yotadigan qo‘ra yonidagi biror ustunga ilib qo‘ygan. Ushbu idish shunday joyga ilinganki tunda uning ichidagi suvga samodagi yulduzlarning aksi tushishi shart bo‘lgan. Marosimning ertasi kuni “Darimchi” ushbu qovoqni olgan va Qur‘ondan suralar o‘qib to‘plab qo‘yilgan suruv ichiga kirgan va to idishdagi suv tugaguncha undagi suvdan og‘iz bo‘shlig‘iga olib suruvdagi qo‘ylar ustiga purkab chiqqan. Ushbu marosimda qatnashgan keksa guvohlarimizning ma‘lumot berishlaricha, bu kasb egalari o‘z kasbini otadan o‘g‘ilga qoldirishga harakat qilishgan, juda kamdan kam hollardagina bu qoidani buzishga majbur bo‘lishgan. O‘z farzandini “Darimchi”lik kasbini olishi uchun Bobo yoki ota hali farzand tug‘ilmasidan tayyorgarlikni boshlagan. Farzand tug‘ilishiga ikki oyga yaqin muddat qolganda Ota 41 ta tirik “iksodid (yaylov kanalari)”ni topib ularni Qamish o‘simligini (qamishning ichi g‘ovak bo‘lgani uchun) bir bo‘g‘imiga solib har ikki tomonini berkitgan. Oradan 40 kun o‘tib qamish ochilgan qamish ichidagi kanalar esa bir-birini yeb bitirib faqat bir donasi tirik qolgan. Ushbu kana esa bir kichikroq idishga yoki piyolaga solinib quyoshga qo‘yilgan kana o‘lib, shu idishda quritilib farzand tug‘ilishiga qadar kutilgan. Farzand tug‘ilgach esa hali onasini ko‘krak sutini iste‘mol qilmasdan avval quritilgan kana mayda qilib maydalangan holda, saryog‘ga aralastirib bolaning og‘ziga solingan . Ushbu rasm-rusumlar qilingandan so‘ng esa ushbu chaqaloq balog‘at yoshiga yetguniga qadar “Darimchi” bobosi, otasi yoki ustozi bilan birga yuqoridagi marosimlarni o‘tkazishga qatnashib yurgan.

Bizningcha ushbu marosim islomgacha mavjud bo‘lgan ajdodlarimizning diniy qarashlari bilan bog‘liq bo‘lib, keyinchalik islom ta‘sirida o‘zgargan. Osmon yoritqichlari bilan bog‘liq tushunchalarning yana biri bu asosan yilqichlik bilan bog‘liqdir. Ma‘lumki ot sutidan tayyorlanadigan mahsulot ya‘ni “qimiz” chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi barcha etnoslar oziq-ovqat ratsionidagi eng tansiq mahsulotlardan biri hisoblanib, bu ichimlik ular tomonidan shifobaxsh xususiyatga ega mahsulot sifatida ham qadrlanadi. Guvohlarimizning ma‘lumotlariga qaraganda ushbu ichimlik Hulkar (Surayyo, Pleyada) yulduzi ko‘ringunga qadar “issiqlik”, Hulkar yulduzi ko‘ringach “sovuqlik” bo‘lar ekan. “Issiqlik” va “sovuqlik” tushunchalari esa xalq tabobatida qadimdan ma‘lum. Hulkar (Surayyo, Pleyada) yulduzi esa yilning 22-26- avgust kunlari ilk bor ko‘rina boshlaydi.

## **Xulosa**

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki O'zbek xalqi an'anaviy dehqonchilik va chorvachilik mashg'uloti bog'liq marosimlar va urf-odatlarda o'lib qayta tiriluvchi tabiat kulti izlari, garchi, qoldiqiy ko'rinish tarzida bo'lsada, yetib kelganini va aksariyat hollarda islomiy qarashlar bilan o'zaro sinkretik tarzda amalga oshirilishini hozirda ham kuzatish mumkin. Islom dinining aynan ushbu xo'jalik turlari bilan bog'liq kultlarga nisbatan bag'rikengligi qadimiy diniy-mifologik tasavvurlar asosidagi dehqonchilik va chorvachilik rasm-rusumlari va urf-odatlaridan ko'zlangan asosiy maqsad sof diniy ta'limot bilan emas, balki hayot davomiyligini ta'minlashga qaratilgan meyorlar, ya'ni mo'l ko'l hosil yetishtirish va uni nes-nobud qilmasdan yig'ib olishga qaratilganligi e'tiborga molikdir. Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Farg'ona vodiysida dehqonchilik va chorvachilik mashg'uloti bilan bog'liq bo'lgan bir qator urf-odatlar va rasm-rusumlar mavjud bo'lgan. Ushbu rasm-rusumlar esa xalqimizning asrlar davomida shakllangan tafakkuri va dunyoqarashining mahsulidir.



## Foydalanilgan Adabiyotlar

- Abdullayev U. (2004). *Farg'ona Vodiysida Etnoslararo Jarayonlar*. Toshkent: G'ofur G'ulom Nashriyoti.
- Basilov V.N. (1986). *Zaklyucheniye Drevniye Obryadi i Kult. Narodov Sredniy Azii*. – M., 201.
- Dyumezil J. (1976). *Osetinskiy Epos i Mifologiya*. – M.
- Egamberdiyev B. va Soatov A. (1990). *Olimlar Olam Haqida*. Toshkent.
- Frolov B.A. (1970). Kak Poyavilas «Magicheskaya Semerka» . *Ateisticheskiye ChteniY*. 4, 116-122.
- Gavrilov M. (1912). *Risolya sartovskix remeslennikov. Issledovaniye musulmanskix sexov*. T.
- Haftanoma*. (1990). Toshkent.
- Jo'rayev M. (1996a). Somon Yo'li Haqidagi O'zbek Xalq Afsonalarining Mifologik Asoslari. *O'zbek Tili va Adabiyoti Jurnal*i, 1, 35-41.
- Jo'rayev M. (1996b). Yulduz Uchishi Bilan Bog'liq Mifologik qarashlar. *O'zbek Tili va Adabiyoti Jurnal*i. 2, 39-43.
- Jo'rayev M. (1997). O'zbeklarning shamol bilan bog'liq mifologik tasavvurlari. "Haydar kulti", *O'zbek tili va adabiyoti*.4, 45-46.
- Litvinskiy B.A. (1981).*Semantika drevnix verovaniy i obryadov pamirsev*. Srednyaya Aziya i yeye sosedi v drevnosti i srednovekove.
- M.Qoshg'ariy. (1963). *Devoni Lug'ati Turk III*. Toshkent: Fan Nashriyoti.
- Nosiruddin Burxoniddun Rabg'uziy. (1990), *Qissai Rabg'uziy*. 1 k-b.  
"Nurnoma" majmuasi T., 1991.
- Ob-havo darakchilari (1996) T.: *Adolat*.
- Sherbak A.M. (1974). *Sal-name* (po rukopisi V-721), Xranyavsheysya v Rukopisnom Otdele Lo Ivan. *Pismennie Pamyatniki Vostoka*-197, 171-180.
- Sarimsoqov B. (1986). O'zbek marosim folklori. Toshkent.
- Tokarev S.A. (1964). *Ranniye formi religii i ix razvitiye* M. nauka.
- Zuxba S.L. (1970). *Abxazskaya narodnaya skazka*. Tbilisi.